

UDK: 811.111

INGLIZ TILI SO‘Z TARKIBINING QISQACHA TASNIFI

*Daulanova Xolida Iskandarovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Profi University dotsenti v.b.

E-mail: daulanovakholida@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda terminologiyani tizim sifatida o‘rganish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda o‘zbek, rus va chet el tilshunoslarining terminologiya va termin yasalishi muammolariga qiziqishlari sezilarli darajada oshdi. Quyidagi maqolada ingliz tili so‘z yasalishining ba‘zu xususiyatlari borasida fikr yuritiladi va murakkab so‘zlar tarkibi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, terminologiya, morfologiya, ingliz tili, so‘z, murakkab so‘z, tarkibiy qism, tahlil.

КРАТКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ СТРУКТУРЫ АНГЛИЙСКОГО СЛОВА

*Дауланова Холида Искандаровна,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)*

и.о. доцент, Profi University

Аннотация. В настоящее время изучение терминологии как системы считается одной из актуальных задач лингвистики. В последние годы значительно возрос интерес узбекских, российских и зарубежных лингвистов к проблемам терминологии и терминообразования. В данной статье рассматриваются некоторые особенности словообразования в английском языке и анализируется структура сложных слов.

Ключевые слова: лингвистика, терминология, морфология, английский язык, слово, сложное слово, компонент, анализ.

BRIEF CLASSIFICATION OF ENGLISH WORD STRUCTURE

*Daulanova Kholida Iskandarovna,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Acting Associate Professor at Profi University*

Abstract. Nowadays, the study of terminology as a system is considered one of the urgent tasks of linguistics. In recent years, the interest of Uzbek, Russian and foreign linguists in the problems of terminology and term formation has increased significantly. The following article discusses some features of English word formation and analyzes the structure of complex words.

Key words: linguistics, terminology, morphology, English language, word, complex word, component, analysis.

Kirish. Hozirgi zamon ingliz tili soʻz yasash tizimida soʻzlarning oʻzaro birikish usuli katta oʻrin tutadi. Soʻzlarning oʻzaro birikishi deganda, yangi soʻz kamida ikkita toʻliq maʼnoli asos yoki soʻzni oʻz ichiga olgan soʻz yasash usuli tushuniladi. Soʻzlarning oʻzaro birikishini oʻrganish bilan bogʻliq masalalar sirasida, avvalo, ingliz tilidagi murakkab soʻzlarni aniqlash muammosi anchagina murakkab hisoblanaishini aytib oʻtish joiz. Ushbu muammoning murakkabligi koʻp qirralidir. Birinchidan, analitik tillardagi murakkab soʻzlarning tarkibiy qismlarini ajratish imkonini beruvchi shakliy belgilarini topish birmuncha qiyinroq va bu belgilarning qoʻllanilishi obyektning oʻziga xosligidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, murakkab soʻzga yondashuv turli holatlarda, masalan, soʻz yasash yoki morfologik jihatdan amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunos O.D.Meshkovning taʼkidlashicha, “derivatsion murakkab soʻz – morfologik jihatdan yasalgan murakkab soʻz; asl murakkab soʻz – murakkab yasama soʻz; asl murakkab soʻz – sintetik jihatdan murakkab soʻzdir”. [7]

S.A.Vengerova ingliz tilida soʻz yasash muammolariga bagʻishlangan toʻplamdagi maqolasida: “Murakkab soʻzlar oʻzlarining tuzilishiga koʻra, dunyoni majoziy tasvirlash uchun moslashtirilgan: ikki yoki undan ortiq asoslarning mavjudligi, ikki yoki undan ortiq referentlar bilan dastlabki korrelyatsiyani, ularning qiyoslanishini, taqqoslanishini va aloqalarini nazarda tutadi”, [3, 28-36] deb taʼkidlaydi. Shuningdek, I.I.Sreznevskiy: “Soʻzlarning va iboralarning shakllanishida har bir tilning ijodiy kuchi turlicha namoyon boʻladi”, [12] deb fikr bildirgan.

“Maʼlumki, leksik birlikning murakkab soʻz yasash mezonlari uni aniqlashga qaratilishi lozim. Lingvistik tadqiqotlarda ingliz tilidagi mavjud murakkab soʻzlarga A.I.Smirnitskiy, I.V.Arnold, R.S.Ginzburg, G.Marchand, O.Yespersen, R.Kvirk” [11] kabi tilshunoslar tomonidan izchil taʼriflar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda terminlarning shakllanishi va ularning lingvistik masalalarini yoritishga bagʻishlangan koʻplab tadqiqotlar olib borilgan boʻlib, mazkur izlanishlar natijasi oʻlaroq terminlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Xususan, quyidagi maqolada ingliz tilida soʻzlarning oʻzaro qoʻshilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlashga harakat qilindi. Ushbu mavzuni yoritishda deskriptiv, morfologik, shuningdek, tarixiy-etimologik, tavsifiy, komponent tahlil, semantik hamda lingvostatistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tilshunos I.V.Arnold oʻzining “Лексикология современного английского языка” manbasida qoʻshma soʻzlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) qoʻshilish turi va bogʻlovchi elementlari boʻyicha; 2) gap boʻlaklari boʻyicha; 3) semantik xususiyatlari boʻyicha.

Shuningdek, muallif mezon sifatida, murakkab soʻzlarning bevosita tarkibiy qismlarining tuzilishini aniqlaydi, ularning orasida: “oddiy soʻzlardan tashkil topgan murakkab soʻzlar (*film-star*); kamida bitta komponenti yasovchi oʻzak boʻlgan qoʻshma soʻzlar (*chain-smoker*); tarkibiy qismlaridan biri qisqartma boʻlgan qoʻshma soʻzlar (*math-mistress*); tarkibiy qismlaridan biri qoʻshma soʻz boʻlgan qoʻshma soʻzlar (*waste-paperbasket*)” [1] mavjudligini taʼkidlaydi.

Ingliz tilidagi murakkab soʻzlarning eng keng tarqalgan tasnifi soʻz turkumlari boʻyicha, yaʼni morfologik yondashuvga asoslangan tasniflardir.

Murakkab soʻzlarning ikki komponentli modellarini aniqlagan O.D.Meshkov: “Agar soʻz turkumlarining har biri boshqasi bilan qoʻshilib, murakkab soʻz hosil qilsa, inglizcha soʻz birikishi ixtiyorida 196 ta model boʻlar edi”, deb taʼkidlaydi. Muallif barcha modellarni unumdorligi, komponentlar oʻrtasidagi munosabatlarning xarakteri hamda ularning semantik munosabatlariga koʻra tasniflab chiqadi va “murakkab soʻzlarning eng koʻp tarqalgan modeli N+N qolipi, yaʼni 2 ta ot komponentdan tashkil topgan usuli”, [8, 213-218] degan xulosaga keladi.

Tilshunos P.V.Tsarev tomonidan murakkab soʻzlarning soʻz turkumlariga mansubligiga koʻra tasnifi ishlab chiqilgan. “Murakkab soʻzlarning hajmi va turi boʻyicha eng koʻp sonlisi murakkab sifatlar va otlar boʻlib, murakkab feʼllar va ravishlar esa, birmuncha cheklangandir”. Bu tasnif doirasida barcha soʻzlar tarkibiy qismlarining struktur-semantik munosabatlariga koʻra maʼlum turlarga boʻlinadi. Murakkab soʻzlarning soʻz turkumlari boʻyicha umumiy tasnifiga qoʻshimcha ravishda, murakkab qisqartma soʻzlar, birinchi elementi – soʻz yasovchi element (*bio*, *Anglo*, *cosmo*) boʻlgan soʻzlar va soʻz-iboralar alohida guruhlar sifatida belgilanadi. Muallifning fikriga koʻra, “soʻz-iboralar soʻzlar va jumlar oraligʻidagi shakllanishdir. Ushbu jumlar tuzilishi, vazifasi va maʼnosi jihatidan murakkab soʻzlardir”. [14, 7-8]

Murakkab soʻzlar borasida O.D.Meshkov, “murakkab soʻz – ikki va undan ortiq asosdan qoʻshilib hosil boʻlgan hamda yaxlitligi asosida ajratib koʻrsatilgan leksik birlikdir”, [7] deb taʼkidlagan. Muallifning mazkur taʼrifiga hamfikir boʻlgan holda biz oʻz tadqiqotimizda unga yondashamiz.

Har bir berilgan birlikni murakkab deb aniqlash uchun A.I.Smirnitskiy tomonidan taklif etilgan yaxlitlik tamoyiliga asoslangan semantik, morfologik, fonetik-orfografik va sintaktik xususiyatlarni hisobga olgan holda mavjud boʻlgan barcha vositalar kiritiladi. Bu borada eng katta qiziqish G.Paul tomonidan ilgari

surilgan “ma’no ajratish” tamoyilini hisobga oladigan murakkab soʻzlarni aniqlashning semantik mezoni hisoblanadi.

Yuqorida “murakkab soʻz – murakkab yasama soʻz” kabi qarama-qarshilik mavjudligi aytib oʻtildi. Bu qarama-qarshilik morfologik tahlildan farqli ravishda soʻz hosil qilish tahlili doirasida kuzatiladi va “morfologik murakkab soʻz – derivatsion murakkab soʻz” sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Murakkab soʻzlarga berilgan taʼrifga tayanib, uning hosil boʻlish xususiyatini koʻrsatgan holatda biz ikki yoki undan ortiq asosga ega boʻlgan soʻzlardan derivatsion murakkab soʻzlarni ajratib olamiz, unda asoslarning birikishi boshqa usul - affiksatsiya soʻz yasash usuli uchun material boʻlib xizmat qiladi.

Masalan: *agranulocyte*, *endolysosome*, *achromatophilous*, *exocrinocytus*, *peroxisome* – prefiksatsiya; *aerophilic*, *acrocentric*, *telocentric*, *myoneural*, *spermatogenial*, *lysosomal*, *centrosomal* – suffiksatsiya.

Morfologik tahlil soʻz tarkibini oʻzining statikasida belgilaydi, soʻz yasash tahlili esa, soʻzning qanday yasalganligini aniqlaydi, uning derivatsion tarixini ochib beradi. Shu asosda morfologik murakkab soʻz bilan derivatsion murakkab soʻz oʻrtasidagi farqni koʻrsatish mumkin. Morfologik tahlilda birdan ortiq asosdan iborat boʻlgan har qanday soʻz murakkab hisoblanadi. “Derivatsion tahlilda faqat asoslarni qoʻshish yoʻli bilan hosil qilingan, buning ustiga soʻz yasashda asoslarni qoʻshish soʻnggi jarayon boʻlgan soʻzni murakkab soʻz deb tan olinadi”. Ingliz tilida bu farq L.Blumfild tomonidan amalga oshirilgan boʻlib, bu yondashuvni bevosita komponentlar tushunchasi bilan bogʻlaydi. Muallif barcha murakkab soʻzlarni sintaktik va asintaktik turlarga ajratgan boʻlib, “birinchi turga tarkibiy qismlarning tartibi sintaktik iboralaridagi soʻzlarning tartibiga mos keladigan, soʻzlarni, masalan *a black board*, ikkinchi turiga esa komponentlari maʼlum bir til sintaksisi uchun xos boʻlmagan murakkab soʻzlarni (*man-made*)” [2] kiritadi. Ushbu tahlil soʻz yasashi statikasini aks ettirsa-da, u yasama soʻzning derivatsion tarixi muammosini hal qilmaydi. Murakkab va murakkab soʻz yasovchi soʻzlar oʻrtasidagi farqni baʼzan aniqlash ancha qiyin kechadi. Shunga koʻra, buni sinchiklab tahlil qilish talab qilinadi.

G.Marchand ham sintetik murakkab soʻzlarni ajratadi, ularni murakkab soʻzlarga yoki birlamchi murakkab soʻzlarga qarama-qarshi qoʻyadi. Sintetik murakkab soʻzlarda ikkinchi elementlar, qoidaga koʻra, mustaqil holda qoʻllanmaydi. Muallifning fikricha, “*gate-crasher, housekeeping* kabi soʻzlar sintetik murakkab soʻzlarga misol boʻla oladi”. [6]

Ingliz tilida murakkab hamda affiksial soʻzlarni farqlash muammosi mavjud. Ushbu muammo hosil boʻlayotgan soʻzning elementlar maqomini aniqlashga qaratilgan. Koʻp hollarda elementlardan biri toʻliq maʼnoga ega ekanligi haqida hech qanday shubha tugʻdirmaydi, boshqa elementni esa, yoki negizli asosga, yoki affiksial asosga bogʻlash mumkin. Bu yerda murakkab soʻzning elementi, bir tomondan, toʻliq maʼnoli soʻzning xususiyatlariga ega boʻlsa, ikkinchi tomondan, tahlil qilingan hosilaning tarkibida uning zaiflashgan semantik maʼnosida paydo boʻladi yoki erkin foydalanishda unga xos boʻlmagan maʼno kasb etadigan holatlariga duch kelish mumkin. Mazkur elementlar suffikslarning ayrim xususiyatlarini namoyon etsa-da, ular hali toʻla maʼnoli asoslarning asosiy xususiyatlarini – erkin ishlatiladigan soʻzlar bilan bogʻliqligini saqlab qoladi. Murakkab hosilalarning komponentlari uchun uning asosiy leksik maʼnosini saqlab qolish, ushbu leksik birlik uchun murakkab soʻz holatini belgilaydi.

Zamonaviy ingliz tilida asosan, yunon va lotin tillaridagi elementlar bilan ifodalanadigan bogʻlangan asoslar deb yuritiladigan leksik birliklarni koʻrib chiqishda murakkab soʻz va affiksial soʻzni farqlash masalasi biroz muammo tugʻdirishi mumkin. Ushbu elementlarning holatini belgilash mazkur soʻzlarni aniqlashni taqozo etadi.

Maʼlumki, terminologiyada murakkab soʻzlar yasallishining ikki xil usuli qoʻllaniladi: 1) soʻz birikmalaridan; 2) modellar boʻyicha.

Birinchi holda, G.Paulning yondashuvi klassik yondashuv hisoblanadi. Unga koʻra, “Soʻz birikmasidan murakkab soʻz yasalganda, maʼno ajralishi deb ataladigan holat yuzaga keladi, buning natijasida murakkab soʻzning maʼnosi u kelib chiqayotgan soʻz birikmasidan farqlanadi. Bu murakkab soʻz va soʻz birikmasi ifodalanishining asosiy mezon boʻlib xizmat qiladi”. Muallifning

izohiga ko'ra, "odatda bunday hollarda grammatik o'zgarishlar sodir bo'lmaydi. Biroq, murakkab so'zning hosil bo'lish jarayonida semantik o'zgarishlar bilan birga ma'lum darajada grammatik o'zgarishlar ham sodir bo'lishi mumkin". [9]

Murakkab so'zlarning modellar bo'yicha hosil bo'lishida ikki holatni farqlash lozim: 1) murakkab so'zning hosil bo'lishi oldindan tayyorlanmaydi va real voqelikning ma'lum hodisasiga nom sifatida yuzaga keladi; 2) murakkab so'zlar mavjud modelga o'xshatish yo'li bilan komponentlarini almashtirish orqali hosil qilinadi.

Bunday holatni Ye.S.Kubryakova, analoglar va so'z yasallishining korrelyatsiya jarayoni sifatida tavsiflagan holat, bu ham analogiyaga asoslangan, ammo ancha murakkab turdagi analogiya, ekanligini ta'kidlagan. Muallif: "Semantik nuqtai nazardan murakkab so'zlarning analoglar bo'yicha hosil bo'lish jarayonlari uning leksik ma'nosini emas, balki motivlashtiruvchi birlikdan olinganligi bilan farqlanadi", [4] deb fikr bildirgan.

So'zlarning o'zaro birikishi sintaksisga bog'liq ekanligi esa, turli jihatlarida namoyon bo'ladi. Murakkab so'zlarning yuzaga kelishi va ularning qo'llanilishi turli tillarda tarqalishi hamda intensivligi bilan farqlanadi. Shuningdek, tilda mavjud bo'lgan so'z yasallish modellariga qo'yiladigan cheklovlar darajasi va tabiatiga ham bog'liqdir.

Zamonaviy ingliz tili so'z hosil qilish darajasi juda yuqori bo'lgan tillardan biri hisoblanadi. Chunonchi, zamonaviy ingliz tilida sintaktik hosilalarga – erkin so'z birikma va gaplarga o'zlarining ma'nolari hamda semantik strukturasi bilan yaqin bo'lgan ko'p sonli so'zlarni yaratish jarayoni doimiy mavjud. Bunday jarayon ingliz tilida juda keng tarqalgan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar bu borada fikr bildirganlar. Masalan, M.D. Stepanova, V.M. Pavlovlar "o'z tadqiqotlarida bu tilda o'zaro so'zlar birikishining sintaktik jihati mavjudligini qayd etganlar". [13] Boshqacha aytganda, ingliz tilida murakkab so'zlarning hosil bo'lishi ko'p hollarda nomlash maqsadidan ko'ra, sintaktik qulaylik maqsadiga xizmat qiladi, ya'ni bu yerda so'zlarning o'zaro birikish funksiyasining ikki tomonlama roli namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, avvalo, inglizcha so'zlarning o'zaro birikishidagi mavjud bo'lgan xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Ingliz tilida so'z hosil qilishning milliy o'ziga xoslik muammosi so'zlarni o'zlashtirish muammosi bilan bog'liqdir. Tilshunos O.D.Meshkov o'z manbasida bu borada, "Xorijiy so'zni rad etishganda yangi tushunchani nomlash uchun mahalliy leksik birliklar asosidagi so'z yasalishi qo'llanilishini payqashadi", [7] deb ta'kidlagan.

Shuning uchun ma'lum tarixiy sharoitda so'zlarning o'zaro birikishining intensivligi o'zlashtirma so'zlar intensivligiga teskari mutanosib bo'lishi mumkin, degan taxmin ham mavjud. Bu taxmin aynan ingliz tili uchun to'g'ri bo'lishi mumkin. O.Yespersenning fikriga ko'ra, "Ingliz tiliga klassik tillardan o'zlashtirma so'zlarning eng ko'p kirib kelishi XIV, XV, XVI va XIX asrlarga to'g'ri keladi". [5]

T.A.Rastorguevaning ingliz tili tarixiga oid manbasida berilishicha: "Agar o'rta ingliz davri, ya'ni XII-XV asrlar kuzatiladigan bo'lsa, unda ko'plab qadimgi ingliz murakkab qo'shma so'zlari qo'llanilmaganligini ko'rish mumkin va so'z qo'shilishi qadimgi ingliz davriga qaraganda unchalik samarali bo'lmagan, lekin yangi ingliz tili davrida esa, ya'ni XVI asrdan keyin uning mahsuldorligi sezilarli darajada oshgan". [10]

Xulosa. Umuman olganda, ingliz tilining boshqa Yevropa tillaridan ajratib turadigan xususiyati uning o'zlashtirma so'zlarga nisbatan moyilligi hisoblanadi va bu tarixiy sabablarga bog'liqdir. Haqiqatan ham, ingliz tilida yangi predmetlar lotin, yunon yoki boshqa xorijiy so'zlar orqali ifodalangan. Shuningdek, ular ingliz tiliga to'liq o'zlashtirilmagan, balki ma'lum bir holat uchun xorijiy so'zlarning elementlaridan tuzilgan, ya'ni ingliz tili nomlash uchun o'zidagi mavjud so'zlarning o'zaro birikish vositalaridan deyarli foydalanmaganligi ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1973. – 304 с.

2. Блумфилд Л. Язык. – Москва: Прогресс, 1968. – 607 с.
3. Венгерова С.А. Сложные слова как способ создания образности в художественном произведении // Проблемы лексической и словообразовательной семантики в современном английском языке. Межвузовский сборник научных трудов. – Пятигорск: Изд-во ПГЛУ Пятигорск, 1986. – С. 28-36.
4. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – Москва, 1981. – 200 с.
5. Jespersen O. Growth and structure of the English Language (10 th edition). – Oxford, 1982. – 244 p.
6. Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation. – Wiesbaden, 1960. – P. 12.
7. Мешков О.Д. Словосложение в современном английском языке. – Москва, 1985. – 187 с.
8. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – Москва: Наука, 1976. – С. 213-218.
9. Паул Г. Принципы истории языка. Перевод с немецкого языка. Изд. 2. URSS, 2014. – 504 с.
10. Расторгуева Т.А. История английского языка. 2-ое изд. – Москва: Астрель, 2003. – 352 с.
11. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва: 1956. – 260 с.; Arnold I.V. The English Word. – Москва, 1986. – 285 p.; Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. – Москва, 1966. – 274 p.; Marchand H. The categories and types of present-day English word-formation: a synchronic-diachronic approach. – München: Verlag C.H.Beck. Second edition, 1969. – 545 p.; Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles. – London: 1st Edition, 1954. – 1024 p.; Quirk R., Greenbaum S., Leech G. and Svartvik F. A grammar of contemporary English. – London: Longman Group Ltd, 1972. – 922 p.

12. Срезневский И.И. Замечания об образовании слов из выражений. – Санкт-Петербург: тип. Имп. Акад. наук, 1873.

13. Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики. – Москва: Высшая школа, 1968. – 200 с.; Павлов В.М. Субстантивное словосложение в немецком языке. Автореф. дисс...док. филол. наук. – Ленинград, 1973. – 46 с.

14. Царев П.В. Сложные слова в английском языке. – Москва: изд-во МГУ, 1979. – С. 7-8.